


## XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2025- yil yanvar-mart oylarida kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga ishga joylashtirishda yordam berishni soʻrab 16 715 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi (1 826 kishi), Qamashi (1 441 kishi), Dexqonobod (1 393 kishi), Qarshi shahrida (1 282 kishi), Koson (1 232 kishi), Gʻuzor (1 151 kishi), Shahrisabz (1 012 kishi), Kasbi (964 kishi), Kitob (944 kishi), Chiroqchi (900 kishi), Yakkabogʻ (853 kishi) tumanlariga toʻgʻri keladi.

Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga murojaat qilgan fuqarolardan 8 351 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu koʻrsatkich, Qarshi shahrida (788 kishi), Koson tumanida (741 kishi), Gʻuzor (710 kishi), Kitob (621 kishi), Chiroqchi (551 kishi), Qarshi (551 kishi) Shahrisabz (513 kishi), tumanlarida yuqori darajada boʻldi. Oʻtgan davr mobaynida bandlikka koʻmaklashuvchi markazlarida roʻyxatga olingan fuqarolardan 20 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka koʻmaklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

### Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)




**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga  
ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni**  
(2025- yil 1- aprel holatiga, kishi)

	<i>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2024- yil yanvar-mart</i>	<i>2025- yil yanvar-mart</i>	<i>2024- yil yanvar-mart</i>	<i>2025- yil yanvar-mart</i>	<i>2024- yil yanvar-mart</i>	<i>2025- yil yanvar-mart</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>16 544</b>	<b>16 715</b>	<b>561</b>	<b>20</b>	<b>561</b>	<b>20</b>
shaharlar:						
Qarshi	2 015	1 282	16	-	16	-
Shahrisabz	744	753	42	1	42	1
tumanlar:						
G‘uzor	1 085	1 151	51	6	51	6
Dehqonobod	652	1 393	13	-	13	-
Qamashi	1 159	1 441	24	-	24	-
Qarshi	1 181	1 826	18	3	18	3
Koson	1 332	1 232	43	-	43	-
Kitob	998	944	64	1	64	1
Mirishkor	788	700	62	-	62	-
Muborak	652	709	24	3	24	3
Nishon	972	812	11	3	11	3
Kasbi	1 063	964	19	-	19	-
Ko‘kdala	803	743	20	1	20	1
Chiroqchi	962	900	40	-	40	-
Shahrisabz	1 006	1 012	78	1	78	1
Yakkabog‘	1 132	853	36	1	36	1



## Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilib kelganlardan ro'yxatga olinganlar ulushi Qarshi, Qamashi, Dehqonobod, Qarshi shahri, Koson, G'uzor, Kitob, Chiroqchi va Kasbi tumanlarida yuqori bo'lgan.


## Ish bilan ta'minlangan aholi soni<sup>1)</sup>

	<i>2024- yil yanvar-mart</i>	<i>2025- yil yanvar-mart</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>7 895</b>	<b>8 351</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	777	788
Shahrisabz	394	419
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	494	710
Dehqonobod	411	425
Qamashi	525	504
Qarshi	511	551
Koson	729	741
Kitob	498	621
Mirishkor	360	427
Muborak	320	375
Nishon	417	394
Kasbi	458	424
Ko'kdala	454	422
Chiroqchi	583	551
Shahrisabz	444	513
Yakkabog'	520	486

<sup>1)</sup> *Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida*



**Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi**  
(jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



**Izoh:** Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Koson, Qarshi shahrida, Kitob, G'uzor, Chiroqchi, Shahrisabz, Qarshi tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

## O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.** 2025- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 079,8 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2025- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Qarshi shahrida 5 683,8 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 139,3 %), Nishon tumanida 5291,8 ming so‘m (129,7 %) , Muborak tumanida 4 573,6 ming so‘m (112,1 %) va G‘uzor tumanida 4 347,7 ming so‘m (106,6 %) ni tashkil etgan.


### Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2025- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
<b>Viloyat bo‘yicha jami</b>	<b>245 291</b>	<b>3 002,2</b>	<b>4 079,8</b>
shu jumladan:			
Sanoat	27 055	529,2	6 520,7
Qurilish	4 946	66,5	4 483,9
Savdo	1 547	22,3	4 798,8
Tashish va saqlash	5 989	122,7	6 829,3
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	169	1,1	2 212,0
Axborot va aloqa	1 121	33,2	9 866,9
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	1 881	66,0	11 689,5
Ta‘lim	115 888	1 162,3	3 343,2
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	53 452	450,7	2 810,5
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 245	34,4	5 101,5
Boshqa faoliyat turlari	30 998	489,8	5 266,6

## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2025- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 079,8 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13,7 % ga o‘sgan .

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilikda 11 689,5 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,9 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 9 866,9 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,4 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 6 829,3 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 167,4 % ni tashkil qildi), Sanoat sohasida 6 520,7 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 159,8 % ni tashkil qildi), hamda San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish sohasida 5 101,5 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 125,0 % ni tashkil qildi) ekanligi kuzatildi.




**o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik  
subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	2024- yil	2025- yil	O‘shish sur‘ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3 589,5</b>	<b>4 079,8</b>	<b>113,7</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	4 945,1	5 683,8	114,9
Shahrisabz sh.	3 380,1	3 892,4	115,2
<i>tumanlar:</i>			
G‘uzor	3 989,0	4 347,7	109,0
Dehqonobod	3 203,9	4 043,9	126,2
Qamashi	2 629,4	2 991,2	113,8
Qarshi	2 880,6	3 430,7	119,1
Koson	3 061,7	3 161,6	103,3
Kitob	2 708,7	3 272,3	120,8
Mirishkor	2 728,2	3 035,3	111,3
Muborak	4 469,4	4 573,6	102,3
Nishon	4 422,6	5 291,8	119,7
Kasbi	2 780,6	2 802,8	100,8
Ko‘kdala	2 704,7	3 189,1	117,9
Chiroqchi	2 904,5	3 370,1	116,0
Shahrisabz	2 738,7	3 056,1	111,6
Yakkabog‘	2 622,7	2 860,5	109,1


**Ish haqi.** 2025- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda.

**Ta‘lim sohasida** 1 947 ta muassasada 115 888 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,2 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 162,3 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 38,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 343,2 ming so‘mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 15,3 % ga o‘sgan.

**Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha**  
**o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*



**Hududlar**




■ ming so'm



**Sanoat** iqtisodiy faoliyat turida 49 ta korxonada 27 055 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,0 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 529,2 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 17,6 %) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 520,7 ming so‘mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 14,8 % ga o‘sgan.

### Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 13 418,8 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,1 barobarga yuqori), Muborak tumanida 8 794,4 ming so‘mni (134,9 % ni tashkil qildi), G‘uzor tumanida 8 279,9 ming so‘mni (127,0 % ni tashkil qildi), Dehqonobod tumanida 7 813,9 ming so‘mni (119,8 % ni tashkil qildi) tashkil etgan bo‘lsa, Ko‘kdala tumanida 2 395,3 ming so‘mni (36,7 foizini), Kasbi tumanida 2 496,7 ming so‘mni (38,3 foizini) hamda Shahrisabz shahrida 2 580,2 ming so‘mni (39,6 foizini) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** sohasida 345 ta muassasada 53 452 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,8 %) xodim ishlagan bo'lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 450,7 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,0 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 810,5 ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga o'sgan.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so'mda)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qarshi shahrida 3 373,6 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 120,0 %) ni tashkil etgan bo'lsa, Kasbi tumanida 2 066,4 ming so'mni (73,5 %) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**San'at, ko'ngil ochish va dam olish** iqtisodiy faoliyat turida 67 ta muassasada 2 245 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 34,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,1 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 101,5 ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 22,9 % ga o'sgan.

### San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 7 015,2 ming so'mni (viloyatdaga o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 137,5 %), Qarshi shahrida 6 182,3 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 121,2 %) ekanligi kuzatildi.

## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2025- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)

### Foiz



■ Sohalar

ming so'm

